

## IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA QO'LLANILGAN EPITETLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Rivojiddinova Diyoraxon Otabek qizi

*Namangan davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada Iqbol Mirzo she'rlarida uchraydigan ayrim epitetlarning lingvistik xususiyatlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *epitet, sifatlash, lingvistik tahlil, lingvistik xususiyat, ohoriylik.*

**Annotation:** *The article describes the linguistic features of some epithets found in Iqbal Mirza's poems.*

**Key words:** *Epithet, adjective, linguistic feature, idiom.*

Har bir shoir-u nosir ijodini kuzatganimizda, beixtiyor ularda qo'llanilgan epitetlarga duch kelamiz. Epitet so'zining lug'aviy ma'nosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha keltirilgan: "Narsa, voqea, hodisa va shu kabilarning sifat, fazilatlarini yaqqol, jonli tasvirlash yoki tasvirli qilib ko'rsatish uchun ularning nomiga qo'shib ishlatiladigan sifatlovchi so'z". Adabiyotlarda epitet so'zi bilan birgalikda "sifatlash" atamasi ham qo'llaniladi.

U kishi, narsa yoki voqelikni aniq, ravshan ko'rsatib beruvchi lingvistik vosita bo'lib, u referentda mavjud bo'lgan belgi, xususiyat, sifatlarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalaridan tashkil topadi.

Epitet (sifatlash) narsa, hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida alohida ta'riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir. Sifatlashlar mohiyatan aniqlovchi larga yaqin bo'lib, aniqlovchilardan emotsional ta'sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi.

Badiiy matnlarda uchraydigan sifatlashlarni xarakteriga ko'ra, 2 turga ajratish mumkin:

1. Umumnutq sifatlashlari.
2. Badiiy sifatlashlar.

Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llanilgan epitetlar o'zining ohoriyligi bilan ajralib turadi. Uning epitetlari shoirning qalb ko'zi-la boqilgan kuzatishlari natijasidir. Boshqacha aytganda, shoir tabiatdagi biror narsani boshqa predmet yoki xususiyatga qiyoslab, epitetlar yaratdi:

Marhum do'stni o'ylab, ortadi g'ussam,



Shum xayollar yovdek qaytadi,quvsam.

(“O’tar”,3-b)

Parchada qo’llanilgan “shum xayollar” birikmasi epitet sifatida qo’llanilib,metaforik ma’no kasb etmoqda.Shuni alohida ta’kidlash kerakki,mumtoz adabiyotda shum sifati nafsga nisbatan qo’llanilgan.

Tabassumga insonning qanday tarbiyaga egaligini ko’rsatuvchi vosita deb qaraladi.Umumnutq sifatlashlarida tabassum so’zi bilan “nim”,“xush”,epitetlari qo’llaniladi.Ushbu so’z shoir she’riyatida original epitet-la ifodalangan:

Ko’ksimni yelpiydi quzg’un qanoti,  
Meni ta’qib etar siniq tabassum.

(“Ta’qib”,6-b)

Qish –fasllar ichida o’zining kumush choynasi bilan dillarga yaqin bo’lgan mavsum.Unga nisbatan umumnutqda “qahraton”,“kumush” sifatlashlari ishlatiladi.Shoir she’rlarida yana bir o’zgachalikka guvoh bo’lamiz:

Qora qishdan qutulmasdan turib olam,  
Dadam qabri ustidan o’t ko’klab chiqdi.

(“Dadam qabri”,57-b)

Lirik qahramon kayfiyatini ochib berishda Iqbol Mirzo qishga “qora”epitetini bog’laydi.

Iqbol Mirzo she’rlarining barchasi ohangdoshlik bilan sayqal topgan.Epitetlar esa ularning badiiyatini oshirishga hissa qo’shgan:

Hilol beshik kabi chayqaldi asta,  
Gulchin darbozaga suyandim xasta.

(“Telba xayol”,9-b)

Ushbu she’rdan olingan parchada hilol so’zi beshikka nisbatan sifatlash vazifasini bajarmoqda.Umumnutqda hilol so’zi ko’proq yangi chiqqan oyni ta’riflash maqsadida qo’llanilar edi.

Rayhon – o’zidan muattar hid taratuvchi ,jannatning belgisi bo’lgan madaniy o’simlik.Bilamizki,uning rangi siyohga moyil:

Siyohrang rayhonlar yashirar ko’zin,  
Ustunga yuz bosib,yig’laydi chopon.

(“Aza”,10-b)

Albatta,shoir yaratgan epitetlar she’rning mavzusi,g’oyasi va mazmuniga monand tarzda yaratiladi,o’z navbatida,she’rning badiiy qimmatini oshiradi:



O’shanda (oq osmon,qo’ng’ir yer guvoh...)  
Ismimni bilardi qayrag’och bargi.

(“O’shanda “,14-b)

Yana bir ilgari qo’llanilmagan,iqbolona epitet:  
Harir havolarni to’zg’itib har yon,  
O’mbaloq oshadi bir to’p kabutar.

(“Bir to’p kabutar”,16-b)

Quyidagi mukammal ohangdoshlik asosida yaratilgan  
epitetlarda so’zlashuv jarayonida boshqa predmetlarni tavsiflab kelgan  
so’z shoir she’rida boshqa narsaga sifat bo’lib kelmoqda:

Qilich novdalarning shaffof qini bor,  
Olov tebranadi ulkan loladay.

(“Og’riq"135-b)

Xulosa qilib aytganda,qalami o’tkir shoir,hozirgi adabiy  
jarayonimizning faol qatnashchisi Iqbol Mirzoning ko’plab she’rlarida  
yuqoridagi kabi epitetlarga duch kelishimiz mumkin.Bu sifatlashlar  
she’rning obrazlilikini oshirish bilan birga she’rxonga o’zgacha zavq  
bag’ishlaydi.She’rlarining o’qishli bo’lishini va osongina xotirada  
muhrlanib qolishini ta’minlaydi.Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov  
Iqbol Mirzo timsolida zamonaviy o’zbek she’riyati iqbolini  
ko’rganligining o’zi ham shoirga bo’lgan yuksak e’tirofdir.

